



<https://doi.org/10.70728/b.series.fil.v08.i06.072>

STANAG 6001 ASOSIDA HARBIY INGLIZ TILIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI BAHOLASH VA RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR

Abdurazakova Shohruza Valiyevna

PhD Candidate

National University of Uzbekistan

Email: abdurazakova_sh@nuu.uz

Annotatsiya: Maqolada til tayyorgarligini standartlashtirish g‘oyasi doirasida STANAG 6001 me‘yorlaridan foydalanib til darajasini aniqlashning lingvodidaktik asoslari yoritiladi. ILR shkalasi va CEFR bilan konseptual uyg‘unlik hamda farqlar ko‘rsatilib, to‘rt ko‘nikma bo‘yicha natijani SLP profili orqali qayd etishning amaliy ahamiyati izohlanadi. Deskriptorlarni amaliyotga tatbiq etishda mazmun–aniqlik–vazifa (CAT) modeli qulay tahlil vosita sifatida asoslanadi. O‘zbekistonda tatbiq jarayonida uchraydigan asosiy to‘siqlar – CEFR bilan moslashtirish, test markazini akkreditatsiyadan o‘tkazish va baholovchilarni kalibrlash, autentik materiallar bankini shakllantirish hamda motivatsiya mexanizmlarining yetarli emasligi – tizimli ravishda tavsiflanadi. Yakunda metodik va tashkiliy yechimlar yo‘nalishlari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: lingvodidaktika, til standartlari, ILR shkalasi, CEFR moslashtiruvi, SLP profili, deskriptorlar, CAT modeli, rater kalibrlash, test markazi akkreditatsiyasi, autentik materiallar, SOP hujjatlari, brifing transkriptlari

Аннотация: В статье рассматриваются лингводидактические основания использования STANAG 6001 как инструмента стандартизации языковой подготовки. Показаны теоретические истоки шкалы ILR и ее сопоставимость с CEFR, а также практическая ценность фиксации результатов по четырем видам речевой деятельности в формате профиля SLP. Для интерпретации уровневых дескрипторов предлагается модель CAT (содержание–точность–задача), позволяющая переводить требования стандарта в измеряемые учебные цели и типы заданий. На материале национального контекста выделяются ключевые затруднения внедрения: межстандартная корреляция с CEFR, аккредитация тестового центра, подготовка и калибровка оценщиков, дефицит банка аутентичных текстов и аудио, а также слабость механизмов мотивации и обмена

опытом. В заключение намечены направления методического сопровождения и организационных решений.

Ключевые слова: лингводидактика, стандартизация, шкала ILR, сопоставление с CEFR, профиль SLP, уровневые дескрипторы, модель CAT, калибровка оценщиков, аккредитация центра, аутентичные материалы, протоколы связи, отчёт SITREP

Annotation: The article outlines the linguodidactic foundations of using STANAG 6001 as a framework for standardizing language training. It traces the standard’s theoretical roots in the ILR scale and discusses its relationship to the CEFR, while emphasizing the practical value of recording results for the four skills through an SLP profile. To operationalize proficiency descriptors in teaching and testing, the paper applies the CAT model (content–accuracy–task), which helps convert descriptor statements into measurable learning targets and task specifications. In the Uzbek context, the study identifies major implementation challenges, including cross-framework alignment with the CEFR, test-center accreditation, rater training and calibration, limited pools of authentic materials, and quality-assurance procedures. The article concludes with methodological and organizational recommendations to support sustainable deployment.

Key words: language standardization, ILR scale, CEFR alignment, SLP profile, proficiency descriptors, CAT model, rater calibration, test-center accreditation, authentic texts, SOP documents, briefing transcripts, radio-communication protocols

KIRISH

Til tayyorgarligini modernizatsiya qilish jarayonida eng dolzarb masalalardan biri sifatida tadqiqotchilar til ta’limini yagona yondashuv va standartlar asosida tashkil etish zarurligini ta’kidlaydilar. Xususan, P.Bex, N.Bibik, I.Bim, L.Maslak, N. Vovchasta, S.Goncharenko, I.Zimnaya, S. Nikolaeva, S.Kojushko, O.Leontieva, E.Passov, O.Tarnopolskiy va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida chet tillarini o‘qitishda metodologik yondashuvlarni unifikatsiyalash va standartlashtirish nafaqat umumiy ta’lim tizimida, balki harbiy sohada ham ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rilmoqda [1; 260; 2;233]. Ularning qarashlariga ko‘ra, kasbiy chet tilini egallash jarayoni oddiy grammatik bilim yoki lug‘at boyligini oshirish bilan chegaralanib qolmasdan, balki keng qamrovli kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga qaratilishi kerak. Shu jihatdan, STANAG 6001 xalqaro standarti til tayyorgarligi samaradorligini baholashning universal vositasi sifatida e’tirof etiladi. Mazkur standart yordamida kursantlar va harbiy ta’lim muassasalari talabalarining chet tili bo‘yicha real kommunikativ salohiyati aniqlanadi, bu esa ularning xalqaro harbiy hamkorlikda faol ishtirok etishi, koalitsion vazifalarni samarali bajarishi va kasbiy malakasini oshirish uchun zaruriy shart hisoblanadi. Demakki, STANAG 6001ni o‘quv jarayoniga tatbiq etish faqatgina baholash mexanizmi emas, balki til tayyorgarligini zamonaviy talablar asosida

yangilash, milliy ta’limni Yevropa va NATO mamlakatlari standartlariga moslashtirish, hamda harbiy kadrlarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning samarali strategiyasi sifatida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

STANAG 6001ni yaratishda muhim nazariy manba ILR shkala (Interagency Language Roundtable bo‘lib, mazkur tizim AQSh hukumati idoralari tomonidan ishlab chiqilgan va til bilimini 0 dan 5 gacha darajalar bilan ifodalashni taklif etadi [12;45]. NATO keyinchalik ushbu shkala asosida STANAG 6001ni ishlab chiqdi.

Bundan tashqari, STANAG 6001 CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) bilan ham uyg‘unlikka egadir. Masalan, STANAG 6001ning 1-darajasi CEFR A2 ga, 2-darajasi B1-B2 ga, 3-darajasi C1ga, 4–5-darajalari esa C2 ga yaqin. Biroq CEFR umumiy fuqarolik ta’limiga yo‘naltirilgan bo‘lsa, STANAG 6001 harbiy-professional vaziyatlarga moslashtirilgan.

STANAG 6001 shakllanish jarayoni bir necha bosqichdan iborat:

1. Ikkinchi jahon urushi davrida ASTP dasturi (1942) – intensiv til kurslari;
2. ILR shkalaning yaratilishi (1968) – til darajalarini standartlashtirish;
3. NATO tomonidan qabul qilinishi (1976) – xalqaro harbiy ehtiyojlar uchun yagona standart;
4. 1990-yillarda yangi a’zolar sababli kengayish;
5. 2003–2006 yillardagi modernizatsiya va “plus” darajalar kiritilishi.

STANAG 6001 NATO tomonidan ishlab chiqilgan standart bo‘lib, til bilimini to‘rt asosiy ko‘nikma bo‘yicha baholaydi:

1. Tinglab tushunish (Listening)
2. Gapirish (Speaking)
3. O‘qish (Reading)
4. Yozish (Writing)

• 0-daraja (Tilni bilmaslik). Shaxs chet tilini bilmaydi, faqat ba’zi so‘z va iboralarni eslab qolishi mumkin. Harbiy kontekstdagi vazifalarni bajara olmaydi.

• 1-daraja (Elementar bilim). Oddiy kundalik vaziyatlarda minimal muloqot qila oladi. Masalan, salomlashish, oddiy buyruqlarni tushunish. Ammo nutqi ko‘plab xatolar bilan cheklangan. Bu darajadagi ofitser oddiy maishiy suhbatlarda ishtirok eta oladi, ammo xizmat vazifalarida mustaqil muloqot qila olmaydi.

• 2-daraja (Cheklangan xizmat darajasi). Paragraf darajasida nutq qurish qobiliyati mavjud. Oddiy xizmat buyruqlarini tushunadi va muhokama qila oladi. Harbiy mashg‘ulotlar va kundalik xizmat vazifalarida yetarli darajada ishtirok etadi. Biroq murakkab diplomatik yoki strategik mavzularni chuqur qamrab olmaydi.

- 2+ daraja (Oraliq bosqich). Shaxs 2-darajadan yuqoriroq imkoniyatlarga ega, ammo 3-darajaga yetmagan. Masalan, professional vaziyatlarda ancha samarali muloqot qiladi, biroq ba’zida grammatik va leksik xatolarga yo‘l qo‘yadi.

- 3-daraja (Professional daraja). Harbiy va diplomatik vaziyatlarda samarali muloqot qiladi. Abstrakt mavzularni muhokama qiladi, o‘z fikrini dalillar bilan asoslay oladi. Masalan, xalqaro konferensiyalarda nutq so‘zlashi, yozma hisobotlar tayyorlashi mumkin.

- 3+ daraja (Professional +). 3-darajaga yaqin, lekin yanada kengroq so‘z boyligi va murakkab tuzilmalarni ishlata oladi. Yirik xalqaro majlislar yoki murakkab diplomatik muzokaralarda to‘liq qatnashish qobiliyatiga ega.

- 4-daraja (To‘liq professional bilim). Har qanday mavzuda erkin, grammatik jihatdan toza va uslubiy jihatdan mos nutq so‘zlay oladi. Maxsus texnik, huquqiy yoki diplomatik matnlarni bimalol tushunadi va ishlab chiqadi. Bu darajadagi ofitser NATO shtabida yuqori lavozimli lavozimlarni egallashi mumkin.

- 5-daraja (Ona tiliga teng bilim). Tilni to‘liq egallagan shaxs. Ona tili egasi bilan deyarli farqsiz ravishda muloqot qiladi. Bu darajaga erishish odatda faqat chet tilida yetarlicha uzoq muddat yashagan yoki maxsus ta’lim olgan shaxslarda uchraydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Mamlakatimizda STANAG 6001 ni amaliyotga tatbiq etilishi borasida, bir qator ishlar amalga oshirish rejalashtirilgan bo‘lsa-da ularning ko‘pchiligi taklif va tavsiya sifatida qolib ketgan. O‘zbekistonda STANAG 6001 ga mos harbiy ingliz tili tayyorgarligi 2010-yillarda institutsional asos topgan bo‘lib, NATO bilan hamkorlikdagi dasturlar yordamida Toshkentda harbiy xizmatchilar uchun intensiv ingliz tili kurslari yo‘lga qo‘yildi. 2015 yil 24 iyuldagi NATO xabariga ko‘ra, poytaxtda 15 nafar tanlab olingan zobit uchun yangi harbiy ingliz tili kursi ishga tushirilgan[14]. 2017 yil 27 mart kuni esa 250 soatlik intensiv “Military English” kursini 25 nafar o‘zbek zobiti muvaffaqiyatli yakunlagani e’lon qilingan va mazkur kurs ham NATO ko‘magida o‘tkazilgan[15].

O‘zbek tadqiqotchilaridan I.Zverev, o‘z ilmiy ishida STANAG 6001ni amaliyotga tatbiq etish va uni CEFR bilan muvofiqlashtirishdagi muammolarni alohida ajratib ko‘rsatadi. Tadqiqotchining fikricha, STANAG 6001 o‘zi mustaqil test tizimi emas, balki yagona til bilim darajasini aniqlash testiga birlashtirilishi mumkin bo‘lgan topshiriqlarni yaratishda foydalaniladigan vositalar majmuasidan iboratdir [16].

Ma’lum bir darajaga oid har bir ko‘nikma deskriptorlari dastlab qaraganda murakkab va tushunarsiz bo‘lib tuyulishi mumkin. Biroq, aslida ularni amaliy qo‘llash uchun qulay bo‘lgan uchta asosiy tarkibiy qismga ajratish mumkin: mazmun (content), aniqlik (accuracy) va vazifa (task) – ya’ni CAT modeli. Ushbu uch komponent har bir ko‘nikma darajasini aniq tasniflash imkonini beradi.

Izlanishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, STANAG 6001 ni O‘zbekistonda tatbiq etish borasida bir necha muammolar o‘z yechimini talab qiladi:

- CEFR va STANAG o‘rtasidagi standartlararo moslashtirish muammosi;
- Test markazi akreditatsiyasi va baholovchi kadrlar yetishmasligi;
- O‘quv materiallari va topshiriqlar bankining yetishmasligi;
- Kadrlararo almashinuv va rag‘batlantirishning kuchsizligi.

I. Zverev o‘z tadqiqotida tilga olgan ikki xil til baholash tizimidagi tafovutlar, STANAG 6001ni mamlakatimizda tatbiq etishda to‘sqinlik qiladi. Fuqaroviy oliygohlarda keng tarqalgan CEFR darajalari bilan STANAG deskriptorlarini moslashtirishda muammolar kuzatiladi. CEFRdagi umumiy kommunikativ vazifalarni STANAGning aniq harbiy-professional vazifalariga (brifing, buyruq, SITREP va h.k.) to‘liq projeksiya qilish har doim ham oson emas. Bu masala nafaqat O‘zbekistonda, balki boshqa davlatlarda uchraydi.

STANAG 6001 tizimi bo‘yicha testlarni ishonchli, obyektiv va shaffof tarzda o‘tkazish uchun baholovchilarni (raterlarni) maxsus tayyorlash, ularning kalibrlanishini (baholash mezonlariga nisbatan bir xillikni) ta‘minlash hamda muntazam monitoring jarayonini yo‘lga qo‘yish zarur hisoblanadi. Baholovchilarni tayyorlash bo‘yicha xalqaro treninglar, xususan, BILC (Bureau for International Language Co-ordination) Testing Workshop dasturi doirasida NATO yoki sheriklik markazlarida o‘tkaziladi. Shu bilan birga, milliy darajada doimiy baholovchilar bazasini (rater pool) shakllantirish va ularning malakasini muntazam yangilab borish muhim bo‘lib, bu jarayon vaqt, metodik resurs va tashkiliy salohiyatni talab etadi.

Uchinchi muammo bo‘lmish materiallarga to‘xtaladigan bo‘lsak, STANAG 6001 testini olish uchun harbiy janrga mos haqiqiy (authentic) materiallar – buyruqlar, standart operatsion tartiblar (SOP), brifing transkriptlari, aloqa protokollarining to‘plami yetarli miqdorda bo‘lishi shart. Ularni maxfiylik, huquqiy ruxsat va didaktik moslashtirish talablari bilan birga yo‘lga qo‘yish qiyin vazifa hisoblanadi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, STANAG 6001 harbiy sohada chet tillarini o‘qitish va baholashning xalqaro mezon sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. U nafaqat harbiylararo hamkorlikni kuchaytiradi, balki zamonaviy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish orqali ofitserlarning kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqadi. O‘zbekistonda bu standartni amaliyotga joriy etish dolzarb masalalardan biri bo‘lib, mavjud tajribalar va xalqaro hamkorlik asosida bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Kelgusida STANAG 6001ning yanada keng qo‘llanilishi va milliy ta‘lim tizimiga chuqur integratsiyasi harbiy mutaxassislarning til salohiyatini oshirish, muloqotda samaradorlikni ta‘minlash va xalqaro miqyosda hamkorlikni mustahkamlash uchun keng istiqbollarni ochadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бех П. О. Методика навчання іноземних мов у вищій школі : навч. посіб. – Київ : Ленвіт, 2013. – 240 с.; Бибик Н. М. Державні стандарти мовної освіти: теорія і практика. – Київ : Педагогічна думка, 2011. – 196 с.;
2. Бим И. Л. Теория и практика обучения немецкому языку в средней школе. – Москва : Просвещение, 1988. – 223 с.;
3. Маслак Л. В. Іноземна мова у професійній підготовці: теорія і практика. – Дніпро : ДНУ, 2017. – 204 с.;
4. Вовчаста Н. І. Формування іншомовної компетентності у немовних ВНЗ : монографія. – Чернівці : Рута, 2015. – 176 с.;
5. Гончаренко С. У. Педагогічні технології в сучасній освіті. – Київ : Освіта, 2002. – 254 с.;
6. Зимняя И. А. Психология обучения иностранным языкам. – Москва : Русский язык, 1991. – 256 с.;
7. Ніколаєва С. Ю. Загальноєвропейські рекомендації з мовної освіти: вивчення, викладання, оцінювання. – Київ : Ленвіт, 2003. – 273 с.;
8. Кожушко С. Професійна іншомовна компетентність у підготовці військових фахівців. – Харків : Основа, 2018. – 164 с.;
9. Леонтьева О. Н. Методика обучения иностранным языкам. – Москва : Академия, 2004. – 192 с.;
10. Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – Москва : Просвещение, 1991. – 223 с.;
11. Тарнопольский О. Б. Методика обучения иностранным языкам в высшей школе. – Киев : Фирма «Интерпресс», 2006. – 220 с.
12. Herzog M. A History of the ILR Language Proficiency Skill Level Descriptions. – Interagency Language Roundtable, 2005. – URL: http://www.govtilr.org/ILRscale_hist.html (дата обращения: 19.08.2025).
13. NATO. STANAG 6001 Language Proficiency Levels. Edition 3. Brussels: NATO Standardization Agency, 2009. – 56 p.
14. https://www.nato.int/cps/en/natohq/news_121902.htm?selectedLocale=en&utm_source.com
15. https://www.nato.int/cps/en/natohq/news_143037.htm?selectedLocale=en
16. <https://fledu.uz/wp-content/uploads/2019/06/Ilya-Zverev-paper.pdf>